

ARAB TILIDA SO‘Z YASALISHINING SEMANTIK USULI

Maxmudova Diyora Jamol qizi
o‘qituvchi, PhD

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
diyorajafarovam@gmail.com

Annotatsiya. Arab tilida so‘z yasashning semantik usuli "التوليد الدلالي" *at-tawlīd ad-dilāliyy* mavzusi doirasida o‘rganilib, ushbu termin so‘zning shakl jihatdan emas, balki ma‘no jihatdan o‘zgarishi bilan izohlanadi. Mazkur usulga "النقل" *an-naql*, "الأضداد" *al-addād*, "الاقتراض" *al-iqtirād* kabilarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: so‘z yasashning semantik usuli, naht, an-naql, so‘z o‘zlashtirish, "al-addād" so‘zlar.

Abstract. The semantic method of word formation in Arabic is studied within the framework of the topic of "التوليد الدلالي" *at-tawlīd ad-dilāliyy* and this term is explained by the change of the word not in terms of form, but in terms of meaning. This method includes "النقل" *an-naql*, "الأضداد" *al-addād*, "الاقتراض" *al-iqtirād*.

Key words: semantic method of word formation, naht, an-naql, loanwords, "al-addād" words.

Аннотация. Семантический способ словообразования в арабском языке изучается в рамках темы "التوليد الدلالي" *at-tawlīd ad-dilāliyy* и этот термин объясняется изменением слова не по форме, а по смыслу. Этот метод включает в себя "النقل" *an-naql*, "الأضداد" *al-addād*, "الاقتراض" *al-iqtirād*.

Ключевые слова: семантический способ словообразования, нахт, ан-накл, заимствование, слова «al-addād».

Til doimo harakatda bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan unda mavjud so‘zlar ma‘nosi o‘zgargan holda qaytadan shakllanib boraveradi. Arab tilida so‘z yasashning semantik usuli "التوليد الدلالي" *at-tawlīd ad-dilāliyy* termini bilan izohlanadi. So‘z yasashning mazkur usuliga kiruvchi "الأضداد" *al-addād* – "addād" so‘zlar, asosan, klassik arab tiliga xos bo‘lib, u bir vaqtning o‘zida ikki qarama-qarshi ma‘noni anglatuvchi so‘zlarga nisbatan qo‘llanadi. Masalan:

أَبْرَ *abarr* - eng yaxshi; eng yomon

أَفْزَع *afza‘* - qo‘rqmoq; qo‘rquvdan xalos bo‘lmoq

Published Date:- 18-10-2023

جدا *jadā* - bermoq; so‘ramoq

شعب *sha‘aba* - sindirmoq; tuzatmoq

لمق *lamaqa* - yozmoq; o‘chirmoq.

Ko‘plab arab nahvchilari (grammatikani o‘rganuvchi olimlar) “aḍḍād” so‘zlarni tazod tarkibiga qo‘shadilar. Lekin klassik arab tilshunoslari Sibavayhi va Almubarrid fikrlariga ko‘ra, aslida tazod “aḍḍād”ning bir qismi, xolos [4;43].

“Aḍḍād” so‘zlar polisemik birikmalarning bir turi bo‘lib, unda so‘z bir vaqtning o‘zida bir-biriga qarama qarshi ma‘noni aks etadi. Arab tilshunoslarining mazkur til hodisasi borasida fikrlari turlicha: ularning ba‘zilari arab tilida bunday so‘zlarni inkor etsa, ba‘zilari ularning borligini qayd etadi. Masalan, Saolibiyning “Fiqh al-lug‘a” nomli kitobida 7 ta, Qutrub, Ibn Anbariy, Feruzobodiy, Abu Toyyib Lug‘aviylarning asarlarida 300 ta “aḍḍād” so‘zlar berilgan.

Shuningdek, “aḍḍād” so‘zlarni o‘rgangan olimlar qatoriga Ibn Sikkiyt (92 ta so‘z), Abu Hotim Sajistoni (170 ta so‘z), Ibn Sayyid (92 ta so‘z) larni ham kiritish mumkin.

Arab tilida “aḍḍād” so‘zlar mavjudligini inkor etgan eng mashhur olimlar Ibn Durustavayh “Aḍḍād hamda omonim so‘zlar chalkashlik va noaniqlikka olib keladi... Bu esa tilning asl vazifasi, ya‘ni tushuntirish va aniqlik kiritishni buzadi”, deb aytgan [5].

“Aḍḍād” so‘zlar Qur‘oni Karimda, hadislarda va she‘rlarda uchrashidan ularning mavjudligini inkor qilib bo‘lmasligi ma‘lum bo‘ladi.

Ibn Anbariy addod xususida bunday bir-biridan farqlanuvchi fikr-mulohazalarning bildirilishiga bir necha omillarni sabab qilib ko‘rsatgan [5]:

1. O‘z ona tilisini yaxshi bilmaslik;
2. Balog‘at ilmidan bexabarlik;

Published Date:- 18-10-2023

3. Arab xalqlarining so‘zlashuvlarida chalkashliklarning mavjudligi.

Zamonaviy davr arab tilshunoslari “aḍḍād” so‘zlar arab, lotin, fors, oromiy kabi ko‘pgina tillarda mavjudligini e‘tirof etsalar, ba‘zi olimlar ularning yuzaga kelishiga so‘z yasash usullaridan biri - “naht”ni sabab sifatida ko‘rsatadilar. Ya‘ni, qarama qarshi ma‘noli ikki so‘zni qo‘shish - “naht” qilish orqali bitta “aḍḍād” so‘z vujudga kelgan.

Yuqorida keltirib o‘tilgan til hodisalaridan tashqari "التوليد الدلالي" *at-tawlīd ad-dilāliyy* – so‘z yasashning semantik usuliga "الاقتراض" *al-iqtirāḍ* – so‘z o‘zlashtirishni ham kiritish mumkin. Bu termin ko‘proq yangi ma‘noli so‘zlarni hosil qilishga nisbatan qo‘llanaib, u mavjud so‘zning ma‘nosiga yana bir yangi ma‘no qo‘shilishi bilan izohlanadi; mazkur jarayonda yasama so‘z va asos o‘rtasida ma‘lum bog‘liqlik bo‘lishi kerak, ayrim holatlarda esa bu aloqa umuman kuzatilmaydi. Masalan, tibbiyotda qo‘llanadigan “ultratovush” atamasi ko‘pchilikka tanish, uning inglizcha ko‘rinishi “ultrasound” bo‘ladi, arablar esa uni bu nomdan mutlaqo boshqacha holda "الموجات" *al-mawjāt* - “to‘lqinlar” deb ataganlar. Uning bunday nom olishiga “ultratovush” jihozining ekranida ko‘rinib turadigan to‘lqinsimon chiziqlar sabab bo‘lgan. Arab tilidagi "النواة" *an-nawāh* (“urug‘”, “danak”) so‘zi fransuz tilidagi “danak” va “yadro” ma‘nolarini ifodalovchi “noyau” so‘zidan "نواة الذرة" *nawāt az-zarrah*, ya‘ni “atom yadrosi” ma‘nosini o‘zlashtirgan [3;172].

Demak, til doimo harakatda bo‘lib, unda yangi so‘zlar doimiy ravishda shakllanib boraveradi. Biz arab tilida so‘z ma‘nolarining semantik o‘zgarishini o‘rganish orqali ushbu tilning o‘tmishi, buguni va kelajakda qanday ko‘rinishda bo‘lishi haqida oz bo‘lsada tasavvurga ega bo‘lamiz. Shuningdek, ushbu mavzu, yana bir bora, tillarni o‘zaro qiyosiy o‘rganish bilan ularni samarali o‘zlashtirish mumkin ekanligini ham ko‘rsatadi.

Published Date:- 18-10-2023

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Luis Ma'luf. Munjid arab tili lug'ati. -Bayrut., 1996.
2. Qodirov T.Sh., Aliyev D.I. Arab tili leksikologiyasi. -Toshkent., 2010.
3. Vincent Monteil. L'arabe moderne Paris. - Paris, 1960.
4. “Kamolot sari” 5-son iqtidorli yoshlar ilmiy to'plami, - Toshkent, 2012.
5. www.google.com, “Kalimaatu ad-dod”.